Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN)	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortinqiyozi o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOB-LAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Radjabov Umurzoq Ablakulovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Surxondaryo kampusi direktori
i.f.n., dots.

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida soliq tizimini modernizatsiya qilish barqaror iqtisodiy o'sish va samarali davlat boshqaruvini ta'minlashning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida soliq tizimini takomillashtirish bilan bog'liq asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Soliq ma'murchiligi, shaffoflik va soliq to'lovchilarning intizomiga raqamli texnologiyalarning ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi.

Abstract. In the context of the rapid development of the digital economy, the modernization of the tax system has become one of the key priorities for ensuring sustainable economic growth and effective public administration. This article analyzes the main trends related to improving the tax system under digital transformation. The impact of digital technologies on tax administration, transparency, and taxpayer compliance is examined.

Key words: digital economy, tax system, digitalization, tax administration.

Аннотация. В условиях стремительного развития цифровой экономики модернизация налоговой системы становится одним из важнейших приоритетов обеспечения устойчивого экономического роста и эффективного государственного управления. В статье анализируются основные тенденции совершенствования налоговой системы в условиях цифровой трансформации. Изучается влияние цифровых технологий на налоговое администрирование, прозрачность и дисциплину налогоплательщиков.

Ключевые слова: цифровая экономика, налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, qishloq xo'jaligi, transport, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi tizimlarida raqamlashtirish jarayonlari keng joriy etilmoqda. Soliq tizimida ham raqamlashtirish ishlari faol amalga oshirilmoqda. Elektron soliq hisobotlari, onlayn nazorat-kassa mashinalari va soliq to'lovchilarning shaxsiy kabineti kabi tizimlar joriy etilishi natijasida soliq jarayonlari soddalashtirish, shaffoflik oshmoqda hamda inson omili kamaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5252-sonli hamda "Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-190-sonli qarorlari soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, fiskal nazoratni kuchaytirish hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash yo'lida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5252-sonli qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-fevraldan boshlab to'lov tashkilotlari, tijorat banklari va elektron tijorat platformalari orqali amalga oshiriladigan savdo va pullik xizmatlar bo'yicha tranzaksiyalar (P2P va kredit to'lovlaridan tashqari) elektron cheklarida soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan fiskal belgilarni majburiy aks ettirishi belgilandi. Bu esa elektron to'lovlar va onlayn savdo jarayonlarining shaffofligini oshirish, soliqqa oid ma'lumotlarni avtomatlashtirish hamda "Soliq.uz" mobil ilovasi kabi raqamli xizmatlarning huquqiy asosini yaratishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosida soliq nazoratining avtomatlashtirilishi soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish hamda davlat byudjeti tushumlarini oshirish imkonini bermogda. Shu tariqa, soliq tizimi yanada samarali, adolatli va zamonaviy boshqaruv tamoyillariga asoslanmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tadqiqotlar raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy tizimlarga, xususan soliq boshqaruvi va daromad modellariga ko'rsatgan ta'sirini tahlil etmoqda. O.V.Staroverova fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar soliq tizimining rivojlanishida asosiy omillardan biriga aylandi. Uning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiy muhitda soliqlarga tortish mexanizmlarini modernizatsiya qilish soliq tizimini yanada samaraliroq va shaffofroq qiladi [2].

T. Deeva ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarda ochiqlikni ta'minlaydi. U raqamli kommunikatsion vositalar yordamida soliqlarga oid jarayonlarni soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi [3].

E. E. Golova va I. V. Baranova fikriga ko'ra, soliq jarayonlarini raqamlashtirish Rossiya soliq tizimini optimallashtirish va ma'muriy jarayonlarda inson omilini kamaytirish uchun zarur shartdir [4].

G. N. Semenova ta'kidlashicha, raqamli ma'muriy vositalar — xususan, Process Mining va IT-treking texnologiyalari soliq nazoratining avtomatlashtirilgan tizimini shakllantiradi. Unga ko'ra, bu yondashuv soliq organlari faoliyatini yanada aniq va tezkor qiladi [5].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar raqamli iqtisodiyotning soliq siyosati va fiskal boshqaruv tizimiga ta'sirini o'rganish ho'zirgi davrda dinamik va tez sur'atlarda rivojlanayotgan yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini takomillashtirish jarayonlarini o'rganish uchun tizimli, tahliliy hamda qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Maqolada raqamli texnologiyalarning soliq ma'murchiligiga ta'siri, soliq bazasini kengaytirish va soliq to'lovchilar intizomini oshirishdagi roli statistik ma'lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilindi.

TAHLIL NATIJALARI

Raqamli iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, "big data", bulutli xizmatlar va raqamli platformalar asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy tizim bo'lib, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va iste'mol jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayon soliq tizimi faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, fiskal boshqaruv va soliq ma'murchiligi mexanizmlarining institutsional hamda texnologik transformatsiyasini taqozo etadi. Shu asosda raqamli soliq infratuzilmasi, masalan, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa tizimlari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar almashinuvi tizimlarining amaliyotga joriy etilishi soliq intizomini kuchaytiradi hamda yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot soliq siyosatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil etish orqali fiskal organlarga soliq bazasini yanada aniqroq aniqlash, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini prognozlash hamda soliq stavkalarini mavjud iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib optimallashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada, soliqlarga tortishning samaradorligi va adolatligi oshadi. Shu bois, zamonaviy soliq tizimi raqamli iqtisodiyotning dinamik rivojlanishiga moslashgan, innovatsion yondashuvlarga asoslangan va ma'lumotga tayanuvchi boshqaruv modeliga aylanishi lozim. Quyida soliq tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'sirini yorituvchi jadval keltirilgan. Jadvalda har bir texnologiyaning mohiyati, uning iqtisodiy va fiskal jarayonlarga ta'siri hamda natijaviy samaradorlik yo'nalishlari ifodalangan.

1-jadval. Soliq tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri

Raqamli texnologiya yo'nalishi	Tavsif	Soliq tizimiga ta'siri
Elektron hisob-faktura (E-invoice)	Tovar va xizmatlar aylanmasi bo'yicha hisob-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish tizimi.	Soliq intizomini oshiradi, yashirin aylanmalarni kamaytiradi va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlaydi.
Onlayn nazorat-kassa tizimlari (ONKT)	Savdo operatsiyalarini real vaqt rejimida soliq organlariga uzatib boruvchi tizim.	Naqd pul aylanmasini nazorat qilishni kuchaytiradi, soliqlarga tortish bazasini kengaytiradi.
Katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili	Turli manbalardan to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyasi.	Soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini prognozlash, soliq stavkalarini optimallashtirish va soliq xavflarini aniqlash imkonini beradi.
Sun'iy intellekt (AI)	Ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtiruvchi tizim.	Soliq tekshiruvlarini samarali rejalashtirish, soliq firibgarliklarini aniqlashni tezlashtiradi.



Bulutli texnologiyalar (Cloud services)	Soliq ma'lumotlarini saqlash, qayta ishlash va ulashish uchun masofaviy platformalar.	Soliq ma'lumotlariga tezkor kirish imkonini yaratadi, ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi.
Blokcheyn texnologiyasi	Ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmaydigan raqamli reyestrda saqlovchi tizim.	Soliq to'lovlari va moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshiradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi.
Mobil ilovalar va onlayn platformalar	Soliq to'lovchilar uchun qulay raqamli interfeyslar.	Soliq to'lov jarayonini soddalashtiradi, to'lov intizomini yaxshilaydi.

Jadvalda keltirilgan har bir texnologiya soliq ma'murchiligini zamonaviylashtirish va fiskal boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyalar yordamida soliq organlari iqtisodiy faoliyatni real vaqt rejimida kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish va qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar soliqqa tortish jarayonining shaffofligini ta'minlaydi va inson omiliga bog'liq xatoliklar yuzaga kelishini oldini oladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili soliq risklarini oldindan aniqlash hamda soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini prognozlash imkonini beradi. Natijada, soliq tushumlari barqarorligi ta'minlanadi, soliq intizomi kuchayadi va fiskal siyosatning raqamli transformatsiyasi jadallashadi. Shu tariqa, jadvalda keltirilgan texnologiyalar zamonaviy soliq tizimining raqamli asosda rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

1. Soliq ma'murchiligining samaradorligi oshadi	Raqamli texnologiyalar soliqqa oid ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi, soliq organlari faoliyati tezlashadi va ma'muriy xarajatlari qisqaradi.
2. Shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi	Elektron tizimlar va blokcheyn texnologiyasi orqali barcha soliq operatsiyalari ochiq raqamli muhitda qayd etiladi. Bu korrupsiya xavfini kamaytiradi va soliq to'lovchilar ishonchini mustahkamlaydi.
3. Soliq bazasini kengaytirish imkoniyati	Onlayn savdo, elektron to'lovlar va raqamli kuzatuv tizimlari yordamida yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash osonlashadi. Shu orqali soliqqa tortiladigan daromadlar hajmi ortadi.
4. Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratadi	Mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari va shaxsiy onlayn kabinetlar orqali soliq to'lov jarayoni soddalashtiriladi, vaqt va resurs tejiladi. Bu soliq to'lash madaniyatini oshiradi.
5. Katta ma'lumotlar asosida tahliliy qarorlar qabul qilish	"Big Data" va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida fiskal organlar iqtisodiy tendensiyalarni prognozlaydi, soliq siyosatini optimallashtiradi va risklarni boshqarish tizimini rivojlantiradi.
6. Real vaqt rejimida nazorat o'rnatish	Onlayn nazorat-kassa mashinalari va elektron hisob-fakturalar yordamida barcha iqtisodiy operatsiyalar real vaqt rejimida soliq organlariga uzatiladi, bu esa soliq intizomini oshiradi.

1-rasm. Raqamli texnologiyalarning soliq tizimidagi asosiy afzalliklari

Raqamli texnologiyalar soliq tizimining samaradorligini oshirishda, shaffofligini ta'minlashda va ma'muriy jarayonlarni optimallashtirishda muhim o'rin tutadi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, blokcheyn va "big data" texnologiyalari orqali soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida yig'ish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi, soliqqa tortish jarayonini tezlashtiradi hamda soliq organlari faoliyatining aniqligini ta'minlaydi. Natijada soliq ma'murchiligi samaradorligi ortadi va fiskal barqarorlik mustahkamlanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar soliq tizimida shaffoflikni kuchaytiradi va soliq to'lovchilar uchun qulay muhit yaratadi. Mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida soliq to'lov jarayoni soddalashtiriladi, elektron nazorat tizimlari esa yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytiradi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili asosida soliq xavflarini oldindan aniqlash, soliq bazasini kengaytirish hamda soliq siyosatini ilmiy asosda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu bois, raqamli texnologiyalar soliq tizimining strategik raqamli transformatsiyasining poydevorini tashkil etadi.

Bunday natijaga erishishda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron hisob-fakturalar tizimi, onlayn nazorat-kassa mashinalari va "Soliq" mobil ilovasi kabi raqamli yechimlarning joriy etilishi muhim rol o'ynadi. Ushbu texnologiyalar fiskal organlarga soliq tushumlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, soliq to'lovchilar



faoliyatini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil etish hamda davlat byudjeti daromadlarini yanada barqarorlashtirish imkonini berdi. Natijada, raqamli iqtisodiyotning soliq tizimiga integratsiyasi davlat moliya siyosatining samaradorligini oshirib, iqtisodiy o'sish uchun qulay fiskal muhit yaratmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda "Soliq" mobil ilovasidan foydalanuvchilar sonining keskin ortishi hamda xaridlar uchun qaytarilayotgan keshbeklar hajmining izchil o'sishi raqamli texnologiyalarning soliq tizimiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Mazkur jarayon soliq to'lovchilarning raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyati shakllanayotganini, ularning fiskal tizimga bo'lgan ishonchi oshayotganini va soliq to'lov intizomi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. "Soliq.uz" mobil ilovasiga oid ma'lumotlar [9]

Ko'rsatkichlar	2024-yil
Foydalanuvchilar soni (ming dona)	5639
Cheklar soni (mln. dona)	1024,6
Keshbek summasi (mln. so'm)	1052247

2024-yilda "Soliq" mobil ilovasi foydalanuvchilari soni 5,6 million nafardan oshgan bo'lib, bu raqam xizmatdan foydalanish ommalashganini ko'rsatadi. Shu davrda 1 milliarddan ortiq elektron chek rasmiylashtirilgan, bu esa naqd pulsiz to'lovlar hajmining ortganidan dalolat beradi. Natijada, foydalanuvchilarga qaytarilgan keshbek summasi 1 trillion so'mdan oshib, raqamli soliq tizimining iqtisodiy rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirgan.

Ilovaning ommalashuvi natijasida soliqqa tortish jarayonlarida shaffoflik, tezkorlik va hisobdorlik darajasi sezilarli ravishda oshmoqda. Keshbek tizimi esa iqtisodiy subyektlarni qonuniy hisob-fakturalardan foydalanishga undab, yashirin aylanmani qisqartirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalar, xususan soliq mobil ilovasi, nafaqat soliq ma'murchiligi samaradorligini oshiradi, balki davlat byudjeti daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydigan muhim omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, soliq tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi fiskal boshqaruvni modernizatsiya qilish, soliqqa tortish jarayonlarini avtomatlashtirish va ma'muriy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, raqamli texnologiyalarning soliq tizimiga keng joriy etilishi soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirib, soliqqa tortish jarayonlarini avtomatlashtirdi va inson omiliga bog'liqlikni kamaytirdi.

Ikkinchidan, "Soliq" mobil ilovasi orqali soliq to'lovchilarning raqamli xizmatlardan foydalanish faolligi ortib, fiskal tizimning ochiqqligi hamda shaffofligi sezilarli darajada kuchaydi.

Uchinchidan, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va keshbek tizimining amaliyotga joriy etilishi yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va budget tushumlarini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar soliq tizimini zamonaviy, tahliliy va samarali boshqaruv tizimiga aylantirib, davlat moliyasining barqarorligi va byudjet daromadlarining uzluksiz o'sishini ta'minlamoqda.

Mamlakatimiz soliq tizimini raqamlashtirish jarayonida quyidagi islohotni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– Xonadonlarni ijaraga berish bo'yicha yagona umumiy elektron portal yaratish. Mazkur platforma orqali ijaraga oid shartnomalarni raqamli ro'yxatdan o'tkazish, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish hamda nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va fuqarolarning soliq intizomini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

– Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida banklar orqali avtorizatsiyalangan to'g'ridan-to'g'ri debet mexanizmini, ya'ni soliq summalarini plastik kartalardan avtomatik tarzda yechib olish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur mexanizm soliqqa tortiluvchi va bank o'rtasida yozma rozilik asosida, qonuniy asosda va xavfsizlik kafolatlari (foydalanuvchi xabardorligi, tranzaksiya bildirishnomalari, shikoyat va qayta tiklash tartiblari, ma'lumotlarni himoya qilish) ta'minlangan holda amalga oshirilishi lozim. Ushbu chora soliqqa tortishning ijrosi va budget tushumlarining barqarorligini oshirishga, shuningdek soliq intizomini yaxshilashga xizmat qiladi.

– Jismoniy shaxslarning plastik kartalari orqali amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha keshbek summalarini "Soliq.uz" mobil ilovasi orqali foydalanuvchi hisob raqamlariga avtomatik tarzda yo'naltirish mexanizmini joriy etish lozim. Bu mexanizm foydalanuvchilarning raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5252-sonli Qarori.
2. Староверова О. В. Цифровые технологии в налогообложении // Вестник Московского университета МВД России. — 2022. — № 5. — С. 339–342.
3. Деева Т. Цифровые технологии в системе современных моделей взаимодействия налогоплательщиков и налоговых органов. — 2020.
4. Голова Е. Е., Баранова И. В. Цифровизация налоговых процессов как способ повышения эффективности налоговой системы России // Фундаментальные исследования. — 2021.
5. Семенова Г. Н. Применение цифровых технологий в налоговом администрировании // Экономика и управление. — 2024. — № 12.
6. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sahifasi
7. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy veb sahifasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
